

Адабиётлар

1. Альтшуллер Г. Введение в ТРИЗ. Основные понятия и подходы: URL: <http://www.triz-ri.ru/triz/triz02.asp>.
2. Арипджанова А.Р. Таълими ахборотлаштириш шароитида олий таълим муассасалари педагогларининг креатив салоҳиятини ривожлантириш: пед.фан.бўй.фалс. докт. (PhD) дисс.автореферати. –Тошкент: 2017, 24-б.
3. Дружинин В.Н. Психология и психодиагностика общих способностей. –Москва: «Наука», 1994, –С. 74.
4. Ибрагимова Г.И. Интерфаол ўқитиш методлари ва технологиялари асосида талабаларнинг креативлик қобилиятларини ривожлантириш: пед.фан.бўй.фалс. докт. (PhD) дисс.автореферати. –Тошкент: 2017, 24-б.
5. Позилова Ш.Х. Олий таълим муассасаси ўқитувчиларини қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш курсларида креатив ўқитиш методикаси: пед.фан.бўй.фалс. докт. (PhD) дисс.автореферати. –Тошкент: 2019, 53-б.
6. Хасанбоев Ж., Тўракулов Х., Ҳайдаров М. ва бошқалар. Педагогика фанидан изоҳли луғат. –Тошкент: Фан ва технологиялар, 2009, 236-б.
7. Юсупова К.Н. Креатив педагогика-инновацион соҳа ва профессионал таълим ўқитувчиси креативлигини ривожлантириш шароитлари. Педагогика. Илмий-назарий ва методик журнал. –Тошкент: 2021, №5. 4-б.

РЕЗЮМЕ. Мақолада малакали бўлажак мутахассислар тайёрлаш учун қулай педагогик шарт-шароитларни яратиш, ўқув-тарбия жараёнига илгор педагогик технологияларини жорий этиш, талабаларнинг бўлажак касб компетентлиги таркибига кирувчи креатив компетенцияларини ривожлантириш ҳақида маълумотлар баён қилинган.

РЕЗЮМЕ. В статье рассматривается информация о создании благоприятных педагогических условий для подготовки квалифицированных будущих специалистов, внедрении в учебный процесс передовых педагогических технологий, развитии у студентов творческих компетенций, входящих в состав будущей профессиональной компетентности.

SUMMARY. The article describes the creation of favorable pedagogical conditions for the training of qualified future specialists, the introduction of advanced pedagogical technologies into the educational process, the development of students' creative competencies are the part of the future professional competence.

TA'LIM JARAYONIDA O'QUVCHILARNING INSHO YOZISH MALAKALARINI OSHIRISH

I.Ibodullayeva – doktorant

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch soʻzlar: dunyo ta'lim tizimida insho, "Intellect maps", "Think and write", ogʻzaki va yozma nutq, ijodiy faollik, erkin fikrlash.

Ключевые слова: эссе, "Intellect maps", "Think and write", устная и письменная речь, творческая деятельность, свободное мышление.

Key words: Essay, "Intellect maps", "Think and write", oral and written speech, creative activity, free thinking.

Jahon tajribasida inshoga ta'limning ajralmas tarkibiy qismlaridan biri sifatida qaraladi. Insho yozish, ayniqsa, AQSh, Angliya, Kanada kabi dunyoning rivojlangan davlatlari kollej va universitetlarida keng yoʻlga qoʻyilgan yozma ish turi hisoblanadi. Kollejlarda talabalar yozma nutq malakalarini rivojlantirish va takomillashtirish uchun insho yozadilar. Universitetlarda esa bunday yozma ish turlaridan boʻlajak talabalarining savodxonligi, dunyoqarashi va tafakkuri mustaqilligini aniqlashda foydalaniladi. BMning "Many languages, one world" ("Koʻp tillar, bir dunyo") shiori ostida insholar tanlovi mavjud boʻlib, bundan maqsad talabalarining koʻp tillarni bilish, nutqiy qobiliyatini rivojlantirish, madaniy ongini yuksaltirishga qaratilgan.

Dunyo ta'lim tizimida zamonaviy oʻqitishni amalga oshirish boʻyicha olib borilayotgan tadqiqotlarda xorijiy tajribalarga asoslangan "Intellect maps" (intellekt xarita), "Think and write" (oʻylamoq va yozmoq) kabi shaxsni shakllantirish va rivojlantirishning turli metodlari mavjud. Bugungi kunda dunyo miqyosidagi barcha sohalarida oʻz fikrini ogʻzaki va yozma ravishda erkin bayon qila oladigan, grammatik savodxonligi yuqori malakali mутахассисlarga ehtiyoj hamda talab ortib bormoqda. Nafaqat, kelajak faoliyati badiiy soʻz bilan bogʻliq shaxslarni shakllantirishda, balki har qanday sohada ish yurituvchi mутахассисni tarbiyalashda inshoning oʻrni beqiyosdir.

Mamlakatimiz ta'lim tizimida oʻquvchilarning ogʻzaki va yozma savodxonligi rivojiga qaratilgan PIRLS, PISA, TIMES, EGMA va EGRA kabi Xalqaro baholash dasturlari boshlangʻich sinflardan boshlab amaliyotga joriy etilmoqda. Shu asosda ta'lim oluvchilarning oʻqish savodxonligi asosida yozma til shakllarini tushunish va ulardan foydalanish darajasi, shuningdek, matnlardan turli koʻrinishlardagi maʼno hosil qilish kompetensiyalarini shakllantirish imkoniyatini yaratdi. Bugungi kunda oʻquvchilar bilimi va intellektini rivojlantirishning turli metodlari, usullari yaratilgan boʻlsa-da, inshoning tarbiyalanuvchi tafakkuri mustaqilligini taʼminlashdagi, uning nutqiy va tafakkur munosabatlaridagi uygʻunlik masalasi bevosita oʻrni chuqur tadqiq etilmagan. Inshoni tashkil etishning ilmiy-nazariy asoslari belgilanmaganligi, bu borada keng koʻlamli tadqiqotlar olib borilmaganligi

tanlangan mavzuning dolzarbligini belgilaydi. Binobarin, "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va maʼnaviy salohiyatga ega boʻlib, dunyo miqyosida oʻz tengdoshlariga hech qaysi sohada boʻsh kelmaydigan insonlar boʻlib kamol topishi, baxtli boʻlishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz", deya taʼkidlanishi mamlakat yoshlarini oʻz fikrini ogʻzaki va yozma ravishda erkin hamda savodli bayon qila oladigan yuqori malakali mутахассисlar etib tarbiyalashda yozma nutq va mustaqil tafakkurning eng oliy shakli boʻlgan insho hamda uni yozishning tartib-qoidalarini oʻrganish-oʻrgatishga asoslangan oʻqitishni maqsadli tashkil etish taʼlimdagi dolzarb muammolardan biri sanaladi.

Shunday ekan, maktab taʼlimida oʻquvchilarni insho yozishga oʻrgatish orqali nutq va tafakkur intergatsiyasini shakllantirishga qaratilgan meʼyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda asosiy manba boʻlib xizmat qiladi.

Oʻquvchilarning yozma ishlarini, xususan, insholar tashkil etish borasida metodist-olimlar S.Dolimov, S.Ismatov, B.Turdiyev, A.Zunnunov, S.Matjonov, Q.Husanboeva, O.Madaev, T.Niyozmetova, S.Yaminova, K.Qosimova, N.Shukrullayeva, R.Inogʻomova, N.Sattorovalarning [1]. N.Shukrullayeva, R.Inogʻomova, N.Sattorovalarning va boshqa bir qator olimlarning u yoki bu darajadagi qarashlari mavjud. Lekin bevosita adabiy taʼlimda inshoning oʻquvchi tafakkuri shakllanishi, uning ruhiy va fikriy kamoloti yuksalishidagi oʻrni aks ettirilgan tadqiqot ishlari koʻzga tashlanmaydi.

S.Dolimovning "Taʼlimiy bayon va insho" nomli risolasi insho nutqni toʻgʻri qurish hamda fikrni aniq ifodalashga oʻrgatish, mavzuga mos material toʻplash, qiziqarli, ahamiyatli, haqiqiy borliqni aks ettiradigan voqealar rivojida ketma-ketlikni belgilash, reja tuzish koʻnikma va malakalarini shakllantirishga xizmat qilishi haqida fikr yuritilgan. Lekin insho va uni tashkil etishning ilmiy-nazariy asoslari ishlab chiqilmagan. Bundan tashqari, insho yozish asnosida oʻquvchilarda shakllantirilishi lozim boʻlgan koʻnikmalarni sobiq sovet davri adabiy taʼlimi maqsadiga muvofiq tarzda tashkil etish nazarda tutilgan.

S.Ismatovning "Oʻrta maktablarning yuqori sinflarida insho" nomli risolasi ham umumiy oʻrta taʼlimning yuqori

bosqichida inshoni tashkil etishga qaratilgan bo'lib, unda, asosan, adabiy mavzudagi insholar yozdirishga e'tibor qaratilgan. Insho nazariyasi va uni tashkil etish yuzasidan bir qator ma'lumotlar keltirilgan bo'lsa-da, davr nuqtai nazaridan bir tomonlama yondashilganlik ko'zga tashlanib turibdi.

N.Sattorovanning "O'quvchilarning insho yozish malakalarini takomillashtirish (5-sinfda ona tili o'qitish jarayonida)" mavzusidagi dissertatsiyasi ona tili darslarida insholarni tashkil etishga qaratilgan.

O.Madaevning "Insho qanday yoziladi?" nomli qo'llanmasida adabiyot darslaridagi insho mavzulari, insho rejasini tuzish, insho yozishga o'rgatish usullari haqida batafsil fikr yuritiladi. Biroq dars jaayonida insholarni tashkil etishning psixologik, pedagogik va metodik asoslari to'lig'icha yoritilmagan. Q.Yo'ldoshev, M.Mirqosimova, R.Niyozmetova, S.Yaminova, B.To'xlijev, A.Zunnunov, H.Suyunov, M.Nurmatova va boshqa bir qator olimlarning maktab adabiy ta'limini yangilash, uni takomillashtirishga yo'naltirilgan tadqiqot ishlarida ilgari surilgan ilmiy g'oyalar, talablar mazmun-mohiyati bilan inshoni tashkil etishga bevosita daxldor bo'lmasa-da, bilvosita o'z ta'sirini ko'rsatadi. Chunki badiiy asarlar ustida ishlashning puxtaligi darajasi u yoki bu mavzuda insho yozishga ijobiy zamin yaratadi. Ko'rinadiki, inshoning o'quvchilar nutqi va tafakkurining integratsiyasida tutgan o'rni masalasi, qolaversa, shaxs ma'naviy kamolotidagi ahamiyati hamda uni tashkil etishning ilmiy-nazariy hamda amaliy-metodik jihatlar alohida tadqiqot sifatida o'rganilmagan.

K.Mavlonovanning "Ona tili darslarida o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini kamol toptirish", "O'quvchining yozma nutqi qanday shakllanadi?", "O'quvchilar yozayotgan insholarning til xususiyatlari", "O'quvchi inshoni qanday yozmoqda?" [2] kabi maqolalarida insho yozish jarayonining bugungi kundagi muammosi yoritib berilgan: "...insholar tahlilidan ayon bo'ladiki, o'quvchilar ko'tarinki ruhda fikr bayon qilishni talab etadigan mavzularda insho yozish chog'ida o'qish va adabiyot darslarida badiiy tasvir vositalari haqida, ona tili darslarida ekspressiv til hodisalariga doir nazariy hamda intuitiv hosil qiladigan bilim va tushunchalaridan kelib chiqqan holda badiiy uslubga yaqin tarzda insho yozish yoki matn yaratishga intiladilar. Ta'kidlash lozimki, amalga oshirilayotgan bilimlarni egallash darajasidagi ta'limiy tadbirlar pirovardida bu ishlar ular yozgan insholar badiiy uslubga yaqinlasha olayotgani yo'q, bunga yoshlarga berilayotgan ushbu uslub unsurlari va sirasrorlariga oid bilimlarning ozligi, ijod qilish, jumlani ko'rkamlashtirish ko'nikmalarining yo'qligi sababdir". Muallif ushbu

muammolarning yechimi sifatida quyidagilarga ahamiyat qaratish lozimligini ta'kidlaydi: "5-9-sinf o'quvchilarning yozgan insholaridan ko'rinadiki, «Vatan nima?», «Ona-ulug' zot», «Bahor-fasllar kelinchagi», «Zumrad bahor», «Mening kelajakdagi orzuyim» kabi mavzular yoshlarga ko'tarinki ruh bag'ishlaydi va bayonni badiylashtirish sari undaydi. Ushbu intilish o'xshasa-o'xshamasa badiiy tasvir vositalaridan, ma'noni kuchaytiruvchi til hodisalaridan foydalanishda namoyon bo'ladi. Zarur BKMning yetishmasligi esa ayrim uslubiy g'alizliklarga, so'zni (ayniqsa, juft so'zlarni, tasviriy ifodalarni) xato qo'llashga sabab bo'ladi. O'qituvchi o'quvchilarning intilishlarini qo'llab-quvvatlab, yo'naltirib, ma'qul variantlarni ko'rsatib, izohlab, yutuqlarni ta'kidlab, rag'batlantirib tursagina, ular tomonidan yoziladigan insholarning sifatini oshirish, obrazlilikni ta'minlash yo'llari bilan tanishtirib borish orqali esa balandparvoz jumalardan xalos etish imkoniga ega bo'ladi" [3].

Shuni alohida ta'kidlash joizki, Rossiyada oliy o'quv yurtlariga kirish imtihonlari orasida hamon insho yozishga alohida e'tibor qaratiladi. Shu ma'noda, ona tili o'qitish metodikasi ilmida insho va uni tashkil etish borasida qator ilmiy tadqiqotlar olib borilganini ta'kidlash zarur. O'quvchilarning ijodiy faolligini oshirish borasida V.Nikolskiy, A.Belkin, T.Buyaks kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlari samarali hisoblansa, bevosita adabiyot o'qitishda o'quvchilarning insholarini tashkillashtirishda A.Grinina-Zemskova, L.Grishina, T.Ladijenskaya, M.Lvov, I.Startseva kabi metodist-olimlarning ilmiy tadqiqot ishlari, nazariy qarashlari, amaliy tavsiyalari e'tiborga molikdir. Aytish lozimki, Rossiya maktablarida O'zbekistondagi ta'lim muassasalari adabiy ta'limi maqsadi bir-biridan ma'lum darajada farqlanadiki, bu tadqiqotlarda ilgari surilgan g'oyalarni shundayligicha, o'zgarishsiz milliy adabiy ta'lim amaliyotida qo'llash aslo mumkin emas. Yuqorida qayd etilgan sabablar umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8- va 9-sinf o'quvchilarida insho yozdirish orqali ularning nutq va tafakkur integratsiyasi masalasi – bugungi zamon talablari doirasida ilmiy-amaliy asoslarini tadqiq etish zarurligini ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, o'quvchilarga sifatli ta'lim berish davr taqozosi. O'quvchilarning tafakkurini o'stirish orqali erkin fikrlashni, og'zaki nutqni va albatta, yozma nutqni rivojlantirishga katta ahamiyat qaratiladi. Insho yozishni o'rgatishda zamonaviy ta'lim metodlaridan va innovatsion ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanilsa, ta'lim sifati yanada oshadi va o'quvchilarda erkin fikrlash hamda fikrlarini ravon bayon eta olish ko'nikmasi paydo bo'ladi.

Adabiyotlar

1. Sattorova N. O'quvchilarni insho yozish malakalarini takomillashtirish (5-sinfda ona tili o'qitish jarayonida): Ped. Fan. Nom. ...diss. – Toshkent: 1995, 141-b.
2. Til va adabiyot ta'limi. – Toshkent: 2015, №11. 24- 25-b., Kadrlar tayyorlash milliy dasturi- "O'zbek modeli"ning ajralmas qismi. Res.ilm.-amal. konf. mat. (1-qism). –Toshkent: 2016, 6-8-b.
3. Mavlonova K. O'quvchi inshoni qanday yozmoqda? Umumta'lim fanlari metodikasi. –Toshkent: 2017, № 4. 10-12-b.

REZYUME. Ushbu maqolada umumta'lim maktablarida o'quvchilarga insho yozishga o'rgatish orqali ularni tafakkurni o'stirish, erkin fikrlarini og'zaki va yozma ravishda xatosiz, ravon yetkazib bera olish ko'nikmasini hosil qilish, insho yozishni o'rgatishda innovatsion texnologiyalar va zamonaviy metodlardan foydalanish sifatli ta'lim berishga zamin yaratishi haqida fikrlar keltirilgan.

РЕЗЮМЕ. В данной статье развитие мышления в общеобразовательных школах путем обучения учащихся написанию сочинений. Приводятся мнения, что формирование умения свободно излагать свои мысли устно и письменно, использование инновационных технологий и современных методов в обучении написанию эссе создадут основу для качественного образования.

SUMMARY. In this article, the development of thinking by teaching students to write essays in secondary schools. Opinions were expressed that the use of innovative technologies and modern methods in teaching essay writing creates the basis for quality education.